

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MUSIQIY MEROSGA
BO'LGAN MUNOSABATNING O'ZGARIB BORISHIDA – DIALEKTIKA:
VORISIYLIK VA TARIXIYLIK**

Azimjon Fayzullo o'g'li XOJIMAMATOV

o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

azimjonxojimamatov@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada musiqiy tafakkurning olamni bilish, his qilish, idrok etish va uning go'zalliklaridan lazzatlanish, go'zallik va mukammallik qonunlari asosida yashash va rivojlanish asoslaridan biri ekanligi, uning shu ma'noda din, fan va falsafa bilan bir qatorda turishi, insoniylikni kamol toptirishi, milliy musiqiy merosga bo'lgan munosabatning o'zgarib borish dialektikasi, vorisiylik va tarixiylik jihatlari ko'rsatilgan.

Tayanch so'zlar: globallashuv, dialektika, vorisiylik, tarixiylik, musiqiy meros, musiqiy tafakkur, matematika, riyoziyot, fizika, geometriya (xandasa), mantiq, mumtoz, shoir, mutafakkir.

**ДИАЛЕКТИКА ИЗМЕНЕНИЙ ОТНОШЕНИЯ К
НАЦИОНАЛЬНОМУ МУЗЫКАЛЬНОМУ НАСЛЕДИЮ В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ: НАСЛЕДОВАНИЕ И ИСТОРИЗМ**

Азимжон Файзуллаевич ХОДЖИМАМАТОВ

преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

azimjonxojimamatov@gmail.com

Аннотация

В данной статье рассматривается музыкальное мышление как способ познания, ощущения, восприятия мира и наслаждения его красотами, его существование и развитие согласно законам красоты и совершенства. Утверждается, что в этом смысле оно стоит в одном ряду с религией, наукой и философией, развивает человечность в человеке, а также показана диалектика изменения отношения к национальному музыкальному наследию, преемственность и историзм.

Ключевые слова: глобализация, диалектика, преемственность, историчность, музыкальное наследие, музыкальное мышление, математика, физика, геометрия, логика, классика, поэт, мыслитель.

Musiqqa ta'limining asosiy maqsadi va vazifasi o'sib kelayotgan avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qiladigan, millat va g'ururni umumbashariyat oldida o'zining nafisligi, milliy kuy ohanglari ila ajralib turadigan jihatlari bilan

ko'rsata oladigan, o'ziga xosligini har qanday tashqi ta'sirlardan saqlay oladigan shaxslarni tarbiyalashga qaratilganligidir.

Musiqiy tafakkur inson madaniyatida va jamoaviy hayotida o'ziga xos o'ringa ega. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonida o'ziga xos muayyan darajadagi vazifani bajaradi. Shuning uchun musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir necha uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Janrlar asosan diniy musiqa, yoshlar musiqasi, maishiy musiqa, ommaviy musiqa, harbiy musiqa, kamer musiqa kabi musiqa turlariga birlashadi. Tarixiy, milliy, mahalliy, shaxsiy musiqa uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o'z ichiga olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiylikni aks ettiradi.

Musiqiy tafakkurning shakllanish jarayoni asosan, uch bosqichda amalga oshiriladi: ijod, ijro va tinglash. Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli o'zgacha ko'rinishda bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyoqarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va mahoratiga mos ravishda o'zgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni o'zlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shu bois ham musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo'ladi.

Mumtoz musiqa madaniyatiga oid asarlar mazmuniga badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari ya'ni taqqoslash, to'qnashuv, rivojlanish jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa mazmuni ham turli epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'ladi. Musiqa shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qadriyatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda mazlum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalari to'g'risidagi umumlashmalar ifoda etiladi. Musiqiy madaniyat har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob

bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari bilan mushtarakdir. Musiqiy tafakkurning inson axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish vositasi sifatidagi roli juda muhimdir.

Markaziy Osiyo mumtoz adabiyotining ajoyib yodgorligi hisoblangan "Qobusnoma" O'rta asr feodal jamiyati musiqiy tafakkurining shakllanishi haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi bilan alohida ajralib turadi. Unda saroy muhitidagi musiqachilarning ijro etgan kuy va ohanglari rang-barangligi haqida fikr yuritiladi. Kitob o'sha davrlarda musiqa tinglovchilariga axloqiy ta'sir etish vositasi sifatida emas, balki davolash vositasi sifatida foydalanilganligini ham tasdiqlaydi. Bu esa keyinchalik she'riy shaklda yozilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", keyinchalik Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" kabi turkiy didaktik poemalari, shuningdek, Faxriddin ar-Roziyning musiqa to'g'risidagi risolalari vujudga keldi.

Temur va temuriylar hukmronligi davrida Markaziy Osiyo juda katta mavqega ega bo'ldi. Arxitektura gullab-yashnadi, davlat poytaxti Samarqand hamda Temurning ona shahri Kesh (Shahrisabz) ulkan qurilishlar bilan obodonlashtirildi va bezatildi. Bosib olingan o'lkalardan, jumladan, Xuroson, Eron, Suriyaning madaniy markazlaridan Amir Temur turli xil hunarmandlar, shuningdek, musiqachilarni ham keltiradi. O'sha davr kishilarining guvohlik berishicha, dabdabali saroy marosimlari musiqa jo'rligida o'tkazilgan. Bu esa bevosita xalqlarning musiqiy tafakkurini shakllanishiga turtki bo'lgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida hikoya qilinishicha hunarmandlarning san'ati xilma-xil bo'lib, ular o'zida ashula, so'z va raqsni jamlagan. Muallif xalq qo'shiqlari va epik dostonlaridan iborat bo'lgan turli xil kuylar borligini ham ta'kidlab o'tadi.

Taniqli olim va musiqachi Abdulqodir avval Amir Temur, keyinchalik esa uning vorislari saroyida xizmat qilgan. U saroy musiqa shakllari bayon qilingan risolaning muallifidir. Hirotda Amir Temurning vorisi Shohruh Mirzo saroyida, ayniqsa, Samarqandda uning o'g'li Ulug'bek saroyida musiqa madaniyatiga katta e'tibor berildi. Mirzo Ulug'bek davrida Samarqand ilmiy va madaniy hayot

markazlaridan biriga aylantirildi. U doimo shoir va musiqa namoyondalariga homiylik qilib kelgan.

XV asrga kelib Hirotida adabiyot va san'at, arxitektura, rassomchilik, musiqa rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Hirotidagi madaniy hayotning gullab-yashnashi Alisher Navoiy nomi bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, u shoh Sulton Husayn Boyqoroning do'sti va bosh vaziri bo'lib, shoirlar, musiqachilar, rassomlar va boshqa ijod ahlini rag'batlantirib turgan.

Alisher Navoiy musiqa xalqning ma'naviy hayotiga juda katta ijtimoiy ta'sir etishini yaxshi tushungan. Shuning uchun ham, u musiqa ma'noli, ta'sirli bo'lib, xalq va uning ma'naviy hayoti bilan mustahkam bog'lanishi lozimligini ta'kidlaydi. Navoiy ishq va go'zallikni musiqiy tafakkurning shakllanishi bilan qiyoslaydi.

Navoiy asarlari g'oyat darajada musiqiy ta'sirchan bo'lib, shoir xalq qo'shiqlarini yaxshi bilgan va sevgan. U o'zining "Mezon ul-avzon" risolasida bir qator yangi vazn o'lchovlarini ko'rsatib berganki, bu o'lchovlardan Markaziy Osiyo shoirlari xalq qo'shiqlarini yaratishda va musiqiy tafakkurni shakllantirishda foydalanganlar.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarini musiqiy tafakkurni rivojlantirishga oid asarlari xalqning musiqiy hayotiga bag'ishlangan sahifalaridan joy olgan. Shakshubha yo'qki, Markaziy Osiyo musiqa madaniyati saroy va shahar doirasida ommaviylashgan boy, rivojlangan musiqa san'ati, ajoyib kuylar ijodkori, ijrochilari bo'lgan o'rta asr musiqa ijodkorlarining shakllanishida xalq musiqa madaniyatining ta'siri juda katta bo'ldi. Ijod etishning qat'iy qoidalari esa xalq musiqiy tafakkurining shakllanishi ma'naviy hayot bilan bevosita aloqadorligi natijasida vujudga keldi.

Ilm-fan va san'atni bir-biridan ajratish aslo mumkin emas. Musiqiy tafakkur hamisha ilmiy kashfiyotlarning doyasi, ilhomchisi bo'lgan, musiqa tufayli inson sezgilari ijtimoiylashadi, fikr tiniqlashadi, borliqni idrok etish faollashadi. Insondagi mehr-shafqatlilik va hamdardlik singari insoniy fazilatlar milliy musiqiy tafakkur orqali shakllanadi va kamol topadi. Musiqa insonning turli kayfiyatlarini

o'zida mujassamlashtiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriyl imkoniyatlari Markaziy Osiyo mutafakkirlari – Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiyl, tasavvuf arboblari – imom G'azzoliyl, Kalobodiy, imom al-Buxoriyl va boshqalar tomonidan yuqori baholanib, sharhlangan va ilmiyl tahlil qilingan.

Markaziy Osiyo IX–XII asrlar musulmon Sharq xalqlari og'zaki an'anadagi musiqasi doston, ya'ni, she'riyat va musiqa amaliyoti tizimlari asosida shakllangan. Markaziy Osiyo, Eron va arab xalqlari musiqasida muttasil davom etgan o'zaro ta'sir va aloqa jarayonlari natijasida ushbu xalqlar uchun umumiy bo'lgan vokal va cholg'u turlari vujudga kelgan. Mashhur bastakor, xonanda va sozandalar Ibrohim Mavsimiy, Is'hoq Mavsimiy, Ziryob, Mansur Zalzal, ibn Surayj va boshqalar Markaziy Osiyo musiqa madaniyati nazariyasi hamda uslublarini yaratishda muhim rol o'ynaganlar.

Yunon musiqasi hamda Markaziy Osiyo xalqlari musiqa an'analari ga asoslangan musiqiy estetik va ilmiy-nazariyl ta'limotlar dastlab boshqa fanlar doirasida (al-Kindiy, Forobiy, ibn Sino) keyinchalik, mustaqil fan sifatida (Urmaviyl) shakllangan. Is'hoq Mavsimiy va al-kindiy Sharqda ilk bor Musiqa (harfiyl) yozuvini ixtiro etishgan. Urmaviyl esa ushbu yozuvni parda tizimiga moslashtirgan.

Musiqiy tafakkurning shakllanishi o'ziga xos an'ana va udumlar asosida paydo bo'ladi. Xalq musiqasida lapar, terma, yalla, qo'shiqlarning turli xillari (marosim, maishiy, mehnat, o'yin, raqs, lirik, nasixatomuz va b.), og'zaki an'anadagi Markaziy Osiyo professional musiqasida esa doston, katta ashula, maqom, cholg'u yo'llari kabi janrlar mavjud. O'zbek musiqa madaniyati merosida to'rtta asosiy mahalliy uslubni farqlash mumkin. Bular: Buxoro – Samarqand musiqa uslubi, Xorazm musiqa uslubi, Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi, Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubidir.

Markaziy Osiyo va Sharq xalqlari musiqiy tafakkuri shakllanishining qonun-qoidalari tizimini o'rganuvchi ilmi musiqa VIII-IX asrlarda Yunus al-Kotib, Halil ibn Ahmad kabi olimlar tomonidan shakllantirilgan. Ilmi ta'rif, ilmi iyqo va ilmi

advordan tarkib topib, musiqa nazariyasi, tarixi, ijodiyoti va ijrochiligi masalalari haqida bahs yuritilgan.

Musiqiy tafakkurning shakllanishida ilmi musiqiy asosan uchta uslubiy yoʻnalishni oʻz ichiga oladi:

1. Musiqa ijodiyoti anʼanalarini Yunoniston mantiq ilmi negizida umumlashtirishga asoslangan ilmiy-ratsionalistik yoʻnalish.

2. Muayyan bir ijodiy uslub, maktab yoki musiqaning maʼlum bir sohasini amaliy oʻzlashtirishga moʻljallangan amaliy-empirik yoʻnalish.

3. Qurʼon, hadislar, shariat arkonlari va tasavvuf gʻoyalari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda musiqiy tafakkurni shakllanishining maʼnaviy mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati masalalarini oʻrganishga bagʻishlangan diniy-maʼnaviy yoʻnalishdir.

Musiqiy tafakkur shakllanishining uchinchi yoʻnalishida ilmi musiqiy koʻp hollarda “samoʻ” deb atalgan. Temuriylar davrida ilmiy-ratsionalistik va amaliy-empirik uslublarini oʻzaro mujassamlashtirgan taʼlimot yoʻnalishi vujudga keldi. Bu yoʻnalishning asoschilari Abdulqodir Marogʻiy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin al-Husayniy, Kavkabiy va boshqalar.

Ilmi musiqiyning muammolar tizimi musiqaning kelib chiqishi, uning ijtimoiy, maʼnaviy, tarbiyaviy ahamiyati, kuy turlari (alhon) va janrlari, nagʻma, buʼd, jins, jam, iyqo, intiloqot, taʼlif, cholgʻushunoslik va boshqa masalalardan tarkib topib, ularni oʻrganishda matematika, riyoziyot, fizika, geometriya (xandasa), mantiq va boshqa fanlar qonun-qoidalari isbot vositalari keng tatbiq etilgan. XX asrning boshlaridan ilmi musiqiy Yevropa va jahon musiqa madaniyatining ilgʻor uslubiy tamoyillari bilan boyitilib, zamonaviy musiqa sharqshunoslikning tarixiy, uslubiy negizi va tarkibiy qismi sifatida rivojlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маънавий маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги босқичга кўтариш тўғрисида: Ўзбекистон

Республикаси Президентининг ПҚ-3160-сон Қарори // Халқ сўзи, 2017 йил 28 июн.

2. Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сон Қарори // Халқ сўзи, 2017 йил 16 май.

3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 464 б.

4. Айходжаева Ш.И. Мақом тароналари (жанр хусусиятлари, ижро анъаналари): Автореф. дис. ... санъатшунослик фан. ном. – Тошкент: Ўзбекистон давлат консерваторияси, 2007.

5. Асқар Ф. Муסיқа ва инсон маънавияти. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000.

6. Жакбаров М. Комил инсон ғояси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2002.

7. Каримова Д.А. «Муסיқа маданияти» фани ўқитувчисининг замонавий педагогик маҳорати // Замонавий таълим, 2018. –№5. – Б. 7.

8. Маннопов С. Ўзбек халқ муסיқа маданияти. –Тошкент: Янги аср авлоди. 2004.

9. Орипов З. Шарқ муסיқий манбашунослиги (X-XI асрлар): Ўқув кўлланма. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Маданият ва спорт ишлари вазирлиги, Республика методика ва ахборот маркази, Ўзбекистон давлат консерваторияси, 2008.

10. Ражабов И. Мақомлар. – Тошкент: Санъат нашриёти, 2006.

11. Ражабий, Юнус. Ўзбек халқ чолғу муסיқаси. –Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1981.

12. Успенский В.А. Классическая музыка узбеков. – Тошкент, 1980.

13. Фитрат А. О‘збек халқ муסיқаси ва унинг тарихи. – Тошкент: Фан, 1993. – 124 б.

14. Шермухамедов С. Фалсафа фани янгиланишининг баъзи муаммолари. – Тошкент: Фан, 1996.

15. Яковлев Е.В. Реализация аксиологического подхода в педагогическом исследовании // Вестник ЮУрГУ. Серия: Образование. Педагогические науки, 2012. – № 4(263). – С. 26-29.